

**XABEAS KORPUS INSTITUTINI QO‘LLASHDA HIMOYACHI  
ISHTIROKI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR.**

**Ithomjonov Sarvarbek Rashid o‘g‘li**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

[sarvarilhomjonov13@gmail.com](mailto:sarvarilhomjonov13@gmail.com)

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada xabeas korpus institutini qo‘llash jarayonida himoyachi ishtiroki bilan bog‘liq muammolar kompleks tahlil qilinadi. Xususan, jinoyat protsessining tergovga qadar tekshiruv bosqichida shaxs huquqlarini ta‘minlash, himoyachining protsessual maqomi, dalil to‘plash vakolatlari va amaliyotda yuzaga kelayotgan to‘siqlar o‘rganilgan. Shuningdek, himoyachining mijoz bilan uchrashish imkoniyatlari, axborotga kirish darajasi va sud nazoratidagi roliga alohida e‘tibor qaratilgan. Milliy qonunchilik, sud amaliyoti hamda xalqaro tajriba asosida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari xabeas korpus institutining samaradorligini oshirish va shaxs erkinligini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.*

***Аннотация:** В данной статье проводится комплексный анализ проблем, связанных с участием защитника при применении института habeas corpus. Особое внимание уделяется обеспечению прав личности на стадии доследственной проверки, процессуальному статусу защитника, его полномочиям по сбору доказательств, а также существующим практическим ограничениям. Рассматриваются вопросы доступа защитника к информации, его взаимодействия с подзащитным и роль в судебном контроле за законностью содержания под стражей. На основе анализа национального законодательства, судебной практики и международного опыта выявлены ключевые проблемы и предложены пути*

их решения. Результаты исследования направлены на повышение эффективности института хабеас корпус и усиление гарантий защиты прав и свобод личности.

**Annotation:** *This article provides a comprehensive analysis of the issues related to the participation of defense counsel in the application of the habeas corpus institution. Particular attention is given to the protection of individual rights at the pre-investigation stage, the procedural status of defense lawyers, their powers in collecting evidence, and the practical obstacles encountered in legal practice. The study also examines the defense counsel's access to information, communication with clients, and role in judicial oversight of detention legality. Based on national legislation, judicial practice, and international experience, key challenges are identified and recommendations for their resolution are proposed. The findings aim to enhance the effectiveness of the habeas corpus mechanism and strengthen the protection of individual rights and freedoms.*

**Kalit so‘zlar :** *xabeas korpus, himoyachi, jinoyat protsessi, tergovga qadar tekshiruv, shaxs erkinligi, protsessual kafolatlar, dalillarni to‘plash, advokat ishtiroki, sud nazorati, inson huquqlar.*

**Ключевые слова :** *хабеас корпус, защитник, уголовный процесс, доследственная проверка, личная свобода, процессуальные гарантии, сбор доказательств, участие адвоката, судебный контроль, права человека*

**Keywords :** *habeas corpus, defense counsel, criminal procedure, pre-investigation stage, personal liberty, procedural guarantees, evidence collection, lawyer participation, judicial oversight, human rights*

Ma'lumki, xabeas korpus qonuni ko'p hollarda jinoyat protsessining tergovga qadar tekshiruv bosqichida ishga tushadi. Tergovga qadar tekshiruv bosqichi jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni sinchiklab tekshirish, ularni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan qaror qabul qilishga qaratilgan tadbirlarni, shu bilan bir qatorda ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan jinoyat izlarini issiq izidan aniqlash, narsalar va hujjatlarni mustahkamlash hamda ularni saqlashga doir choralarni o'z ichiga qamrab oladigan jarayon bo'lib hisoblanadi<sup>1</sup>.

A. Yuloshbekovning ta'kidlashicha, "O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining yillar kesimidagi ish faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlari tahlil qilinganida, jinoyat protsessining tergovga qadar tekshiruv bosqichida himoyachilar ishtirok etgan jinoyat ishlari 2019 yilda 2410 tani, 2020 yilda 3015 tani, 2021 yilda esa 6958 tani tashkil etganini ko'rish mumkin. Ushbu ko'rsatkichlar orqali yil sayin jinoyat protsessining tergovga qadar tekshiruv bosqichida tergovga qadar tekshiruv organlari xodimlari tomonidan inson qadr qimmatini ustun qo'yilgan holda ularning himoyachi xizmatidan foydalanish huquqlarini ta'minlanishi ortib borayotganligi quvonarli hol albatta.

Tergovga qadar tekshiruvning boshlanishiga huquqni muhofaza qiluvchi organga jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarning kelib tushishi asos bo'lib xizmat qiladi va ularning haqqoniyligi hamda jinoyat tarkibi bor yoki yo'qligi tergovga qadar tekshiruv harakatlari orqali tekshiriladi. Bunda huquqni muhofaza qiluvchi organlardan mazkur xabarning haqiqatdan ham jinoyat ekanligini aniqlash talab etiladi. Ya'ni, bu bosqichda muayyan shaxslarga nisbatan gumon paydo bo'ladi. Natijada esa, ushbu shaxslarning Konstitutsiyaviy huquqlari

<sup>1</sup> Yuldoshbekov A.A. Jinoyat protsessida himoya institutini takomillashtirish masalalari. Magistrlilik dissertatsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Akademiyasi. Toshkent.2022 yil.38-bet.  
SJIF: 5.051

muayyan tarzda cheklanadi (eng birinchi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi). Masalan, tushuntirish olish uchun shaxsni huquqni muhofaza qiluvchi organga olib kelish va ushlab turish harakatlari orqali shaxs huquqlariga ta'sir o'tkaziladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Ushlabturilgan yoki har qanda shakldagi jazoga tortiladigan barcha shaxslarni himoya qilish Tamoyillari to'plamida ham *ushlangan shaxs* – huquqbuzarlik sodir etganlik uchun jazoga hukm qilinmagan holatda shaxsiy erkinlikdan mahrum etilgan shaxs<sup>2</sup> sifatida e'tirof etilgan”<sup>3</sup>.

Malakali yuridik yordam olish huquqi va uning amaldagi holati Konstitutsiyaviy normalarga muvofiq ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga binoan “har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega”<sup>4</sup>. Biroq, amaliyotda tergov organlari tomonidan ushlangan shaxsga himoyachiga ega bo'lish huquqi to'laligicha tushuntirilmasligi, shaxs huquqlarini buzilishiga olib keladi. Ushbu holatga sabab bo'luvchi omil sifatida tergov organlariga majburiyat sifatida ushlangan shaxsning huquqlarini tushuntirishning yuklanmaganligini ko'rsatish mumkin.

Xabeas korpus instituti doirasida, ya'ni qamoqqa olish yoki qamoqda saqlash muddatini uzaytirish kabi sud ko'rib chiqadigan masalalarda himoyachining ishtiroki ushbu huquqning muhim tarkibiy qismidir.

<sup>2</sup> Свод Принципов защиты всех лиц, подвергаемых задержанию или заключению в какой бы ни было форме. Резолюция Генеральной Ассамблеи 43/173. 9 декабря 1988.

<sup>3</sup> Yuldoshbekov A.A. Ko'rsatilgan asar. 39-bet

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 01.05.2023, <https://lex.uz/docs/-6445145>

Xabeas korpus institutini qo‘llashda himoyachi ishtirok etishi protsessual tartibda ushlangan yoki qamoqqa olingan shaxsning huquqlarini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega bo‘lsada, shaxsning huquqlarini samarali himoya qilishdagi to‘siqlarning mavjudligi yetarli darajada himoya pozitsiyasini egallashga to‘sqinlik qiladi va shaxslarning huquqlarining buzilishiga hamda asossiz ravishda hibsga olinishiga olib keladi.

Xabeas korpus instituti zamonaviy jinoyat-protsessual huquq tizimining eng muhim kafolatlaridan biri sifatida shaxsning erkinligi va daxlsizligini ta‘minlashda alohida o‘rin egallaydi. Ushbu institutning mohiyati shundan iboratki, u shaxsni asossiz ravishda erkinlikdan mahrum etilishining oldini olishga, qamoqqa olish yoki qamoqda saqlashning qonuniyligi va asoslanganligini sud nazorati orqali tekshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, xabeas korpus mexanizmi jinoyat protsessining dastlabki bosqichi — tergovga qadar tekshiruv jarayonida qo‘llanilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu bosqichda shaxsning huquqlari eng zaif holatda bo‘ladi va uning erkinligi tezkor ravishda cheklanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, himoyachining ishtiroki nafaqat protsessual talab, balki inson huquqlarini real ta‘minlashning ajralmas sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Tergovga qadar tekshiruv bosqichi jinoyatga oid ariza va xabarlarini ko‘rib chiqish, ularning asoslanganligini aniqlash, jinoyat izlarini aniqlash va dalillarni mustahkamlashga qaratilgan murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Mazkur bosqichda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tezkor va samarali harakat qilish talab etiladi, biroq bu jarayonda shaxs huquqlarining buzilishi xavfi ham yuqori bo‘ladi. Xususan, shaxsni tushuntirish olish uchun olib kelish, ushlab turish yoki boshqa protsessual harakatlar orqali uning erkinligi va shaxsiy

daxlsizligi huquqlari cheklanadi. Shu sababli xalqaro huquq normalari, jumladan, BMT tomonidan qabul qilingan ushlangan shaxslarni himoya qilish tamoyillari ham shaxs erkinligi cheklangan paytdan boshlab uning huquqlari maksimal darajada himoya qilinishi zarurligini ta'kidlaydi<sup>5</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham har bir shaxsning malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlangan bo'lib, bu huquq ayniqsa shaxs ushlangan paytdan boshlab ta'minlanishi lozimligi belgilangan<sup>6</sup>. Ya'ni, shaxsning harakatlanish erkinligi amalda cheklangan paytdan boshlab u o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu konstitutsiyaviy norma ko'pincha to'liq amalga oshirilmaydi. Tergov organlari tomonidan ushlangan shaxsga uning huquqlari, xususan himoyachiga ega bo'lish huquqi yetarli darajada tushuntirilmasligi, himoyachining jarayonga o'z vaqtida jalb etilmasligi yoki shaxsning o'zi tanlagan advokat o'rniga tayinlangan himoyachilarni jalb qilish kabi holatlar uchrab turadi. Bu esa himoya institutining real samaradorligini pasaytiradi va xabeas korpus mexanizmining mohiyatiga putur yetkazadi.

Xabeas korpus jarayonida himoyachining ishtiroki ayniqsa muhim bo'lib, u sudga shaxsni qamoqqa olishning asoslanganligi yoki asossizligini baholashda muqobil pozitsiyani taqdim etadi. Biroq, ilmiy adabiyotlar va amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, himoyachining protsessual imkoniyatlari davlat ayblovi tomoniga nisbatan sezilarli darajada cheklangan. V.A. Kolyadina ta'kidlaganidek, sudgacha bo'lgan bosqichda himoyachining faoliyati jiddiy cheklovlarga duch keladi, bu esa tomonlar tengligi va tortishuv tamoyilining to'liq amalga oshishiga to'sqinlik

<sup>5</sup> BMT "Ushlab turilgan shaxslarni himoya qilish tamoyillari", 1988-yil

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 01.05.2023, <https://lex.uz/docs/-6445145>

qiladi. Ayniqsa, dalillarni to‘plash va taqdim etish masalasida himoyachining vakolatlari yetarli darajada keng emas<sup>7</sup>.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, dalillar asosan tergov organlari tomonidan to‘planadi. Jinoyat-protsessual kodeksining tegishli moddalarida dalillarni yig‘ishning asosiy shakllari sifatida so‘roq qilish, tintuv, olib qo‘yish, ekspertiza tayinlash kabi protsessual harakatlar ko‘rsatilgan bo‘lib, bu vakolatlar asosan davlat organlariga berilgan.

Yuqoridagi fikrlarga monand ravishda A.N. Mikailova va G.G. Amirbekovalar quyidagicha ta‘kidlaydi, “Ko‘p hollarda himoyachi tomonidan to‘plangan ma‘lumotlar keyinchalik dalil sifatida qabul qilinmaydi yoki inobatga olinmaydi”<sup>8</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 87-moddasiga binoan dalillar asosan tergov organlari tomonidan yig‘iladi. Ushbu moddaga ko‘ra “Dalillar tergov va sud harakatlarini yuritish: gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini, guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni so‘roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko‘rsatish; ko‘rsatuvni hodisa ro‘y bergan joyda tekshirish; olib qo‘yish; tintuv; ko‘zdan kechirish; guvohlantirish; murdani eksqumatsiya qilish; eksperiment o‘tkazish; ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish uchun namunalar olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan ashyolarni, hujjatlarni va elektron ma‘lumotlarni qabul qilish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, shuningdek tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish yo‘li bilan

<sup>7</sup> Колядина В.А, Проблемы совершенствования процессуальных полномочий адвоката-защитника и его участия в уголовно-процессуальном доказывании, 2024

<sup>8</sup> Микаилова А.Н., Амирбекова Г.Г. Проблемы самостоятельности защитника в уголовном деле, 2025. № 1. С. 189—192. <https://doi.org/10.24412/2073-3305-2025-1-189-192>

to‘planadi’<sup>9</sup>. Advokatlarning mustaqil ravishda dalillarni to‘plash va sudga taqdim etish huquqlari cheklangan. Masalan, advokat o‘z mijozining aybsizligini tasdiqlovchi guvohlarni so‘roq qilish yoki muhim hujjatlarni talab qilish huquqiga to‘liq ega emas.

Himoyachiga esa dalil to‘plash huquqi berilgan bo‘lsa-da, amaliyotda uning to‘plagan ma’lumotlari ko‘pincha to‘laqonli dalil sifatida tan olinmaydi. Natijada, himoyachi sudda o‘z pozitsiyasini asoslashda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Bu esa xabeas korpus jarayonining haqiqiy tortishuv xarakterini susaytiradi va uni formal tekshiruvga aylantirishi mumkin.

Yana bir muhim muammo — himoyachining o‘z mijoziga to‘siqsiz kirish imkoniyatining cheklanishidir. Qonunchilikda advokatning ushlangan shaxs bilan erkin uchrashish huquqi kafolatlangan bo‘lsa-da, amaliyotda turli ma’muriy to‘siqlar mavjud. Jumladan, advokatdan qo‘shimcha ruxsatnomalar talab qilinishi, uchrashuvlarning kechiktirilishi yoki umuman rad etilishi holatlari uchraydi. Bu esa himoyaning o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishiga jiddiy zarar yetkazadi. Chunki himoyachi mijoz bilan ilk bosqichda uchrashib, uning pozitsiyasini aniqlashi, unga huquqiy maslahat berishi va protsessual strategiyani belgilashi lozim. Agar bu imkoniyat cheklansa, himoya formal tusga kirib qoladi.

Amaliyotda uchraydigan yana bir tizimli muammo — shaxsni rasmiy ravishda ushlangan deb e’lon qilmasdan, amalda ushlab turish holatlaridir. Bunday vaziyatda shaxs protsessual maqomga ega bo‘lmaydi va unga tegishli huquqlar, jumladan himoyachidan foydalanish huquqi ham taqdim etilmaydi. Bu esa himoyachining o‘z mijozini aniqlash va unga yordam ko‘rsatish imkoniyatini deyarli yo‘qqa chiqaradi. Shuningdek, shaxsni uzoq vaqt davomida “guvoh”

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-111460#-254256>  
SJIF: 5.051

maqomida ushlab turish orqali unga gumon qilinuvchi uchun nazarda tutilgan huquqlarni bermaslik amaliyoti ham mavjud bo‘lib, bu qonunni chetlab o‘tishning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Himoyachining axborotga kirish imkoniyatlari ham yetarli darajada ta‘minlanmagan. Ish materiallari bilan o‘z vaqtida tanishish, dalillarni o‘rganish va ularni baholash imkoniyatining cheklanganligi himoyaning samaradorligini pasaytiradi. O.S.Pochechuyeva ta‘kidlaganidek, himoyachining zarur ma‘lumotlarga kirish imkoniyatining cheklanganligi uning protsessual huquqlarini amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi<sup>10</sup>. Bu esa ayniqsa xabeas korpus jarayonida salbiy oqibatlarga olib keladi, chunki sud qarori aynan taqdim etilgan dalillarga asoslanadi.

Ekspertiza bilan bog‘liq masalalar ham muhim muammolar sirasiga kiradi. Amaldagi tartibga ko‘ra, ekspertiza tayinlash vakolati faqat tergovchi, prokuror yoki sudga tegishli. Himoyachi mustaqil ravishda ekspertiza tayinlay olmaydi, bu esa uning dalil to‘plash imkoniyatini cheklaydi. Ayniqsa, kechiktirib bo‘lmaydigan ekspertizalar o‘z vaqtida o‘tkazilmasa, bu shaxs huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Statistik ma‘lumotlar ham ushbu muammolarning tizimli xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi. Jumladan, 2022-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, qamoqqa olish masalalari bo‘yicha sud majlislarining atigi 38 foizida himoyachi kamida 24 soat oldin xabardor qilingan, 61 foiz holatda esa himoyachi majlis kuni jalb etilgan. OSCE/ODIHR kuzatuvlariga ko‘ra esa ishlarning 77,6 foizida himoyachi materiallar bilan yetarli darajada tanishmasdan sudda ishtirok etgan. BMT maxsus

<sup>10</sup> Микаилова А.Н., Амирбекова Г.Г. Проблемы самостоятельности защитника в уголовном деле, 2025. № 1. С. 189—192. <https://doi.org/10.24412/2073-3305-2025-1-189-192>  
SJIF: 5.051

ma'ruzachisi ham O'zbekistonda advokatga kirish bilan bog'liq tizimli to'siqlar mavjudligini qayd etgan.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xabeas korpus institutining samarali ishlashi ko'p jihatdan himoyachining real va faol ishtirokiga bog'liq. Masalan, AQSh, Germaniya va Fransiya kabi davlatlarda himoyachiga ish materiallari bilan to'liq tanishish, dalillarni mustaqil yig'ish va sudda faol ishtirok etish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bu esa sud qarorlarining adolatli va muvozanatli bo'lishini ta'minlaydi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytganda, xabeas korpus institutini qo'llashda himoyachi ishtiroki bilan bog'liq muammolar kompleks va tizimli xarakterga ega. Ular nafaqat qonunchilikdagi bo'shliqlar, balki amaliyotdagi kamchiliklar bilan ham bog'liq. Shu sababli ushbu muammolarni bartaraf etish uchun himoyachining dalil to'plash vakolatlarini kengaytirish, uning axborotga kirish huquqini mustahkamlash, advokatning mijoz bilan to'siqsiz uchrashish kafolatlarini ta'minlash, shuningdek, ushlarining dastlabki bosqichidan boshlab himoyachining majburiy ishtirokini joriy etish zarur. Faqat shu yo'l bilan xabeas korpus instituti o'zining haqiqiy mohiyatiga mos ravishda inson huquqlarini samarali himoya qiluvchi mexanizmga aylanishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Yuldoshbekov A.A. "Jinoyat protsessida himoya institutini takomillashtirish masalalari". Magistrlik dissertatsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, 2022. — 38–39-betlar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 1-maydagi yangi tahriri.

[LEX.UZ — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi](<https://lex.uz/docs/-6445145>)

3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 1994-yil 22-sentabr.

[LEX.UZ — Jinoyat-protsessual kodeksi](<https://lex.uz/docs/-111460>)

4. Свод принципов защиты всех лиц, подвергаемых задержанию или заключению в какой бы ни было форме. Принят резолюцией Генеральной Ассамблеи ООН 43/173 от 9 декабря 1988 года.

5. ВМТ. “Ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan barcha shaxslarni himoya qilish tamoyillari to‘plami”. 1988-yil.

6. Колядина В.А. “Проблемы совершенствования процессуальных полномочий адвоката-защитника и его участия в уголовно-процессуальном доказывании”. — 2024.

7. Микаилова А.Н., Амирбекова Г.Г. “Проблемы самостоятельности защитника в уголовном деле” // Евразийский юридический журнал. — 2025. — №1. — С. 189–192. [DOI maqolasi](<https://doi.org/10.24412/2073-3305-2025-1-189-192>)

8. Organization for Security and Co-operation in Europe / Office for Democratic Institutions and Human Rights (OSCE/ODIHR). Advokatlarning jinoyat protsessidagi ishtiroki bo‘yicha monitoring materiallari.

9. United Nations Special Rapporteur on the Independence of Judges and Lawyers. O‘zbekistonda advokat faoliyati va huquqiy yordamga kirish bo‘yicha hisobotlar.

---

10. AQSh, Germaniya va Fransiya jinoyat-protsessual qonunchiligi hamda xabeas korpus institutiga oid xorijiy amaliyot materiallari.